O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

JIZZAX VILOYATI XTXQTMOHM

# "TA'LIM TIZIMIDA FAN, INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI"

## Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi (2021-yil, 20-noyabr)

# MATERIALLARI

# "PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE, INNOVATION AND THE DIGITAL ECONOMY IN THE EDUCATION SYSTEM"

## International scientific and practical online conference (November 20, 2021 y)

# MATERIALS



UDK 370.1:33:681.142.37

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

«ANIQ VA TABIIY FANLAR METODIKASI» KAFEDRASI

# "TA'LIM TIZIMIDA FAN, INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI"

**Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi**
**(2021-yil, 20-noyabr)**
**MATERIALLARI**

# "PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE, INNOVATION AND THE DIGITAL ECONOMY IN THE EDUCATION SYSTEM"

**International scientific and practical online conference**
**(November 20, 2021 y)**
**MATERIALS**

# «ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ, ИННОВАЦИИ И ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ»

**Международная научно-практическая онлайн-конференция**
**(ноября 20, 2021 г)**
**МАТЕРИАЛЫ**

JIZZAX – 2021

vi. “bilimlarning kod-kontseptual konstruktsiyasi” - N.N.Manko (ta’riflovchi) umumlashtirishning to’liqligini ta’minlaydigan asosiy bilimlarni rivojlantirish va shakllantirish va o’rganilayotgan obyektni obrazli ravishda tuzilgan tasvirlash).

Yuqoridagi kognitiv-vizual yondashuvdan kelib chiqqan holda har bir mutaxassislik fanlarini kampyuter dasturiy vositalaridan foydalangan holda, fanlar tashkil etilsagina talaba tomonidan fanlarni a’lo darajada o’zlashtirilishiga erishish mumkin.

## БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ИЖОДИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

***Пардаев Бахтиёр Абдужаббарович ЖДПИ.Тасвирий санъат ва мухандислик графикаси кафедраси ўқитувчиси.***

**Аннатация**.Ушбу мақолада бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларни касбий ижодий компетентликни такомиллаштиришга оид мулоҳазалар келтирилган.

**Калитли сўзлар**. Таълим-тарбия, жамият эхтиёжи, касбий ижодий компетентлик. илм-фан, техника ва технологиянинг ривожланиши.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган таълим тизимидаги янгиликлар натижасида жамиятда ўзига хос ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ривожланиш йўлини танлаш, таълим сохасида олиб борилаётган ҳамда очиқ мақсадга йўналтирилган давлат сиёсати жамият тараққиётини таъминлайдиган устувор йўналиш сифатида эътироф этилди. Бугунги кунда замонавий ўзбек тасвирий ва амалий санъатига кўплаб ёш истеъдод эгалари кириб келаётгани, турли йўналишларда фаолият кўрсатаётган ижодкорлар, хусусан, рассом ва хайкалтарошлар, халқ усталари ижодида янгича мазмун ва шакл, жахон санъат майдонида муносиб ўрин эгаллашга интилиш тенденсиялари кўзга ташланаётганини ижобий бахолаш лозим бўади. Бу анъанани муносиб тарзда давом эттириш юқори профессионал компетенцияга эга бўлган мутахассислар тайёрлашни тақозо этади. Компетенциявий ёндашув ракобатбардош мутахассис, жумладан бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини тайёрлашнинг энг самарали усулларидан бири сифатида эътироф этилмокда.

Узлуксиз таълим жараёнига компетенциявий ёндашувга асосланган таълимни жорий этиш сиёсий, умумдавлат ва дидактик ахамиятга эга бўлган ходиса хисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги «Педагогик таълим сохасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПК- 4623-сонли қарорида «Сохада таълим, илм-фан ва ишлаб чиқариш уйғунлигини таъминлаш орқали таълим сифатини яхшилаш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш;

олий педагогик таълимга рақамли технологияларни жорий этиш, замонавий ахборот- коммуникация ва таълим технологияларининг мустахкам интегратциясини таъминлаш пировардида педагог кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириб бориш учун қўшимча шароитлар яратиш;

юксак маданиятли, амалий касбий кўникмага эга, тарбия, ўқитиш методлари ва баҳолаш мезонларини пухта эгаллаган замонавий педагог кадрларни шакллантириш жараёнлари самарадорлигини ошириш» каби устувор йўналишлар белгиланган. Таълим-тарбия жараёнининг самарадорлиги бугунги кун талаби, жамият эхтиёжи, фан ва техниканинг ривожланиш тенденциялари асосида ишлаб чиқилган малака талаблар ва фан дастурларига боғлик. Бугунги кунда илм-фан, техника ва технологиянинг ривожланиши, жамият эхтиёжларининг ўзгариб

бориши дунёнинг ривожланган ва ривожланаётган давлатларида таълим парадигмасини ўзгартириб, ўқув жараёни назарий билимлар беришдан олинган билимларни амалиётда қўллай олиш кўникмаларини ривожлантиришга қараб ўзгармоқда.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини маданий меросимиз тарихий анъаналаримиз ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат Ватанга муҳаббат,истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш республикамизда таълим тизимини ислоҳ қилишдаги амалга оширилаётган барча ижобий ишларнинг муҳим жиҳатларидан биридир. Ижодкорликни ривожлантириш механизми масалалари бўйича ишларни ўрганиш ва таҳлил этиш ҳозирги замон олимларининг шахс ижодий фаолиятининг муаммосига чуқур қизиқишлари тўғрисида хулоса қилишга имкон беради. Ижодкорлик инсондан юқори иш қобилиятини ва фикрлаш фаоллигини талаб қилади. Ўқув жараёнида ва ижодий фаолиятда таълим олувчиларнинг касбий сифатларини шакллланишида кўп нарсалар иродага қийинчиликларни енга олиш кўникмасига боғлиқ бўлади. Бўлажак тасвирий санът ўқитувчиларнинг бадиий дидини компетенциявий ёндашув ўз мазмунида бугунги кунда таълимда юз бераётган инновацион жараёнларни акс эттиради. Ривожланган мамлакатларда кабул килинган таълим стандартининг умумий консепциясига мувофик булиб, таълим мазмунини унинг сифатини назорат килиш тизимига, хусусан компетентлик тизимига ўтиш лозимлигини кўрсатади.

Компетентлик қуйидаги белгилар билан тавсифланади;

-ҳар қандай муайян вазиятда.унинг турли хил жиҳатларини олган ҳолда билимларни ўз ўрнида ва тезкорлик билан тўғри қўллай билиш;

-қарорларни қаул қила билишга қодирлик ва тайёрлик,шу билан бирга мазкур вазият учун энг мақбул қарор самаралисини танлай олиш;

-ижтимоий ҳаракатларни ташкил этиш ва бунинг учун имкониятларни ишга сола билиш;

-фаолият доирасида бошқа одамлар билан ўзаро муносабатларни аниқ мақсадни кўзлагани ҳолда ва мақбул тарзда ўрната олигшимконини берадиган коммуникатив кўникмалар;

-маънавий қадриятлар,дунёқарашга,умуммаданий ва аҳлоқий сифатларга эгалик,фаолиятга интилиш ҳиссини мавжудлиги;

-ўзининг ижодий имкониятларини ривожлантиришга,фаолиятининг янги усулларини эгаллашга интилиш.

Хулоса қилиб айтганда олий таълим муассасаларининг бўлажак тасвирий саъат ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда педагог кадрларни компетентлигини индикаторларини аниқлашда айнан ушбу малака талаблари ҳамда хорижий ҳуқуқиймеъёрий ҳужжатларда илгари сурилган педагогнинг мақоми тўғрисидаги ғояларга асосланиш мақсадга мувофидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1.Гулямов К.М.Компетенцияви ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш.-Т.2020й.

2.Мавлонова Р.ва бошқ.Умимий педагогика.-Т.Наврўз.2016 й.

*Usmanova M.S*
Bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilaning o'rni va ahamiyati to'g'risida mutafakkirlarning qarashlari 279
*Xudoyberdiyeva Sh.Sh*
Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar qo'llanishi va samaradorligi 282
*Meliboyev Anvar Rashidovich, Qobulova Oynisa Xonimqulovna*
Boshlang'ich sinf o'qish darsida interfaol uslublardan foydalanishning ta'limiy ahamiyati 286
*Daminova Shohista Farxodovna, Mustanova Munojat Yo'lchiyevna*
Boshlang'ich ta'limda badiiy matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish tamoyillari 290
*Daminova Shohista Farxodovna, Musayeva Dildora Abduraimovna*
Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilaviy marosimlarning o'rni 293
*M.Usmanova*
Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnalogiyalardan foydalanish 295
*Usmonova Y., Razakov A.*
Boshlang'ich sinflarda fransuz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar 299
*Rajabova Mahliyo*
Мактаб ўқитувчининг касбий-ижодий компетентлигини малака ошириш тизимида ошириш усуллари. 302
*Қурбонов Нуриддин Яҳёқулович*
Oilada farzand tarbiyasida ayolning o'rni 306
*Sulaymonova Dildora Abdualimovna*
Shaxs psixologiyasi va dunyoqarashining o'zaro uyg'unligi 307
*Xaydarov Sherzodbek Xomidovich*
Farzand tarbiyasida oilaning o'rni 310
*Karimboy Otajonov Safarova Gavhar Shuhratovna*

***IV-SHO'BA***

Тўқимачилик корхоналарида сифат менежмент тизимини жорий этишнинг афзалликлари. 313
*Рахмонов Ф.А*
Texnologik ta`limda steam yondashuv istiqbollari 315
*Raximov Xurshidjon Obidovich*
Yosh bo'lajak rassomlarning rangtasvirda manzara ishlashning o'ziga hos xususiyatlari 316
*Negmatov Olimjon Omilxanovich*
Muhandislik fanlarini kognitiv-vizual yondashuv asosida o'qitish imkoniyatlari 319
*Xo'jjiyev Ma'murjon Yangiboyevich*
Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларни касбий ижодий компетентликни такомиллаштириш 322
*Пардаев Бахтиёр Абдужаббарович*
Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларни замонавий таълим технологиялари асосида касбий фаолиятга тайёрлашни такомиллаштириш 324
*Ўтабоев Бахтиёр*
Касбий малака ошириш тизимида тасвирий санъат ўқитувчиларни касбий компетентлигига қўйиладиган талаблар ва уларни такомиллаштириш 325
*Нурназаров Худойқул.Махмудов*
Технология фани ўқитувчиларининг касбий компетентлиги ва салбий хусусиятлари ёндашуви 328
*Холматов Пардабой Қорабоевич*
Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий компетентлигини ривожлантиришнинг шарт-шароитлари 329
*Худойбердиев Миролим Искандар ўғли*
Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларни касбий компетентлигини ошириш 331